

AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Annayev Abbas Baxtiyor o'g'li

Xalqaro innovatsion universiteti katta o'qituvchisi

[ORCID:0009-0002-9847-2163](https://orcid.org/0009-0002-9847-2163)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati aholisi turmush darajasining hozirgi holati, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar hamda uni oshirish yo'nalishlari tahlil etiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish juda katta ahamiyatga ega. Xususiy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, kambag'allikni qisqartirishda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bir qator shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ularning har biri iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, sanoat tarmog'i, yalpi ichki mahsulot, geografik doira, statistika, aholi turmush darajasi, xizmatlar hajmi ko'rsatkichlar, omillar.

Аннотация

В данной статье анализируется современное состояние уровня жизни населения Кашкадарьинской области, социально-экономические факторы, влияющие на него, и направления его повышения. Для достижения этой цели большое значение имеет развитие частного предпринимательства. Частное предпринимательство играет важную роль не только в обеспечении экономического роста, но и в создании новых рабочих мест и укреплении социальной стабильности. В частности, существует ряд условий развития частного предпринимательства в снижении уровня бедности, каждое из которых играет важную роль в обеспечении экономической и социальной стабильности.

Ключевые слова: услуга, отрасль, валовой внутренний продукт, географический охват, статистика, уровень жизни, объем услуг, показатели, факторы.

Abstract

This article analyzes the current state of the living standards of the population of Kashkadarya region, the socio-economic factors affecting it, and the directions for its improvement. To achieve this goal, the development of private entrepreneurship is of great importance. Private entrepreneurship plays an important role not only in ensuring economic growth, but also in creating new jobs and strengthening social stability. In particular, there are a number of conditions for the development of private entrepreneurship in reducing poverty, each of which plays an important role in ensuring economic and social stability.

Keywords: service, industry, gross domestic product, geographic coverage, statistics, standard of living, volume of services, indicators, factors.

KIRISH

Bugungi kunda aholi turmush darajasini belgilaydigan ko'rsatkichlarni statistik usullarda o'rganish, ularga ta'sir etuvchi omillarni statistik parametrlar orqali baholash muhim masalalardan biri hisoblanadi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi xam islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlovchi asos bo'lib xizmat qilishi, birinchi o'ringa inson qadri va manfaatlari yuqori o'ringa qo'yilganligi, turmush darajasiga bevosita ta'sir etuvchi kuchlardan biri hisoblanadi. Aholining turli qatlamlari daromadlarini, xususan «Dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish», ming yillik taraqqiyot dasturida ko'zda tutilgan toza ichimlik suvi, suv resurslarini asrab avaylashga yo'naltirilgan «Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish, xususan, 2026 yilgacha respublika aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shaharlar va 155 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash» kabi muhim ustuvor vazifalar belgilab berildi[1]. Ushbu vazifalar hududlarda aholining pul daromadlari va turmush darajalarini oshirish omillarini statistik usullarda baholash, statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ekonometrik modellarini tuzish va prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bilamizki, aholi turmush darajasini baholashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyasiga ko'ra 12 xil ko'rsatkichlarni jamlovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjud bo'lib, ushbu ko'rsatkichlarning statistik jihatdan tahlil qilish oldimizdagi asosiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

N.D.Kremlyov. Aholi turmush darajasiga kengroq ta'rifni keltirgan bo'lib, unga ko'ra «Turmush darajasi –tor ma'noda -bu aholining iste'mol darajasi va ehtiyojlarni qondirish darajasi (daromad, xarajatlar, tovarlar va xizmatlar iste'molini o'lchash) xususiyati orqali namoyon bo'ladi; keng ma'noda esa, inson taraqqiyoti darajasi xususiyati orqali (aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari va salomatlik holati) va aholining yashash sharoitlari (aholining turar joylari xavfsizligi holati).[1].

И.И.Елисеева 2002 yilda chop etilgan «Социальная статистика» darsligida «Turmush darajasi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Turmush darajasining zamirida aholining zaruriy moddiy ne'matlar va xizmatlarga bo'lgan iste'molining yuqori darajada ta'minlanishi, xamda turli (ratsional) iste'molining qondirilishi tushuniladi» deb ta'riflaydi.[2]

Tadqiqotchi olim CH.Murodov fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat miqyosida xizmat ko'rsatish sohasi oltita yo'nalishda, ya'ni ishlab chiqarish, ijtimoiy - maishiy, institutsional, shaxsiy, ekologik va bozor munosabatlariga mos ravishda ajralib chiqadi va shakllanadi.[3]

METODOLOGIYA

Maqolada tizimli tahlil metodi, Qiyosiy (komparativ) tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil metodlar, ekspert baholash usullari qo'llanildi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi

aholining turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilish, ularning hududiy xususiyatlarini aniqlash hamda Qashqadaryo viloyatida farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Aholi turmush darajasi” muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, murakkab, ko'pqirrali jarayonni aks ettiradi. Shuning uchun ham aholi turmush darajasini aks ettirish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- aholining daromadlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- aholining xarajatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- daromadlarini differensiallash, kambag'allik darajasi va uning chegarasi singari ko'rsatkichlar kiradi.

“Turmush darajasi” tushunchasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini rivojlantirishda Birlashgan millatlar tashkiloti sezilarli hissa qo'shdi. 1960 yilda BMTning ishchi guruhi global miqyosda turmush darajasini aniqlash va o'lchash tamoyillari haqida hisobot tayyorladi. Bu keng qamrovli tizimni yaratish yo'lidagi dastlabki qadam edi. BMTning xalqaro statistika sohasidagi turmush darajasi ko'rsatkichlarining oxirgi versiyasi 1978-yilda ishlab chiqilgan va 12 ta asosiy yo'nalishni qamrab olgan. Bugungi kunda ham mazkur xalqaro tashkilot tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, BMTning Bosh assambleyasida 2000 yilda qabul qilingan “Ming yillik rivojlanish dasturi” hamda 2015 yilda tasdiqlangan “2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi” bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodi-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda, aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim tadbirlar sirasiga kiradi. Biroq, istisnosiz hamma tomonidan qabul qilinadigan o'rnatilgan ta'rif yo'q. Turmush darajasi va unga bog'liq bo'lgan hayot sifatini baholash usullarida juda ko'p fundamental farqlar mavjud. Shunga qaramay, ulardan faqat ba'zilar haqiqiy ishonchlilikka ega. Siz boy bo'lishingiz mumkin, lekin siz qanoatlanmaysiz. Siz mamnunsiz, lekin siz o'zingiz xohlagan hayot tarzini olib borolmaysiz. Siz shunday hayotga ega bo'lishingiz mumkin, lekin baxtli emassiz. Siz baxtli bo'lishingiz mumkin, lekin sizga boshqa narsalar etishmayapti. Xulosa qilib aytganda, turmush darajasining predmeti juda murakkab. Turmush darajasining eng ko'p qo'llaniladigan ko'rsatkichi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotdir. Ko'pgina iqtisodchilar aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o'sishini eng muhim maqsad deb bilishadi. Yalpi ichki mahsulot hech qachon farovonlikni o'lchash uchun mo'ljallanmagan.

Turmush darajasi atamasi inson yoki xalq yashaydigan va ular yaratishga yordam beradigan sharoitlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu kontseptsiya asta-sekin turli xil ta'riflarni ishlab chiqdi, ular asosan ma'lum bir ta'rif yaratilgan fan tomonidan belgilanadi. Izchillik hatto intizom ichida ham mavjud emas. Turmush darajasi ko'pincha hayot sifati va farovonlik bilan bog'liq va ba'zan chalkashtirib yuboriladi. Hayot darajasi masalalari bilan shug'ullanadigan asosiy fanlar birinchi navbatda

iqtisod, keyin sotsiologiya va psixologiyadir. Iqtisodiy nuqtai nazardan, turmush darajasi asosan davlat darajasida (daromad, iste'mol va ishsizlik) moddiy shartlar bilan o'lchanadi.

Aholi turmush darajasini o'lchash uchun iqtisodiy adabiyotlarda turli ko'rsatkichlar qo'llanadi. Asosiylari quyidagilardan iborat:

1-jadval

Aholi turmush darajasini o'lchash uchun ko'rsatkichlar va mazmuni¹.

№	Ko'rsatkich nomi	Mazmuni
1	Aholi jon boshiga YAIM	Iqtisodiy ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatadi.
2	O'rtacha oylik ish haqi	Ish bilan band aholining daromad darajasi.
3	Aholining real daromadlari	Inflyatsiya hisobga olingan daromad miqdori.
4	Ishsizlik darajasi	Mehnat resurslarining bandlik holati.
5	Sog'liqni saqlash va ta'lim sifati	Inson kapitali rivojlanish darajasi.
6	Uy-joy va infratuzilma ta'minoti	Turmush sharoitlarining qulayligi.
7	Atrof-muhit holati	Hayot sifati va ekologik xavfsizlik.

Har qanday jamiyatda o'sib bora yotgan ehtiyojlarni qondirish va farovon yashash uchun iqtisodiy o'sish yuz berishi kerak. Iqtisodiy o'sish, deganda iqtisodiy ravnaq, ya'ni iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi bo'lib, yaratilgan tovarlar va xizmatlarning ko'payib borishini bildiradi. Ammo iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sishni ikki darajada olib qarash mumkin. Mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy o'sish. Mikroiqtisodiy o'sish firma, korxona va tarmoq miqyosidagi rivojlanishni aks ettiradi va ularda o'sish yaratilgan tovarlar va xizmatlarning bozor narxida hisoblangan hajmiga qarab aniqlanadi. Makroiqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyot, ya'ni muayyan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy taraqqiyotni ifoda etadi va yalpi milliy mahsulotning (YaMM) ko'payishini bildiradi. YaMM hajmi iqtisodiy o'sishning umumlashgan pulda ifodalangan ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagi miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tomonlarni olib notekis boradi. Birinchi usulda xarajatlar jamlanadi, ya'ni barcha iste'molchilarning tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflangan puli jamlanadi. Ikkinchi usulda daromadlar – tovar va xizmatlarni sotishdan tushgan pul daromadlari jamlanadi. Iqtisodiy o'sish esa, YaMMning real hajmi bilan o'lchanadi. Gap shundaki, uning qiymat - pul shakli narxlarga bog'liq. YaMMning moddiy hajmi o'smasda, inflyatsiya ta'sirida narx oshsa, uning qiymat-pul miqdori ortib ketadi. Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondashilganda, u bir xil suratlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish suratlarining jadallashish, jiddiy pasayish va hatto cheklanish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaraladigan bo'lsa, jahon va milliy iqtisodiyotda, barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonlama taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. 2025 yilning yanvar-iyun oylarida Qashqadaryo viloyatida YaIM 5,9 foizga oshib, 43901 mlrd. so'mni tashkil etgan. Qo'mita ma'lumotlariga

¹ Muallif ishlanmasi.

ko'ra, 2024 yilda YaIM hajmi 80 658,3 mlrd so'mni tashkil etdi va o'sish 6,5 foiz bo'ldi. 2023 yil bu ko'rsatkich 68 648,6 mlrd so'mni tashkil qilgan edi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaIMning hajmi 19 494,1 so'mga yetdi. Bu esa 2024 yilgiga qaraganda 6,5 foizga yetgan.

Aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishini ekonometrik modellash tirish nazariyalari mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda davlat boshqaruvi yo'nalishlarini shakllantiradi. Biroq ularni o'rganish bilangina cheklanib bo'lmaydi, chunki ular ko'p jihatdan mintaqalarning iqtisodiy o'sish nazariyalariga tayanadi. Aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni, model va usullarni izlash hamda joriy etish taqozo etiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining hozirgi sharoitdagi roli quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- sohasida doimiy ravishda yangi ish joylari yaratiladi;
- soha mamlakatning yalpi ichki mahsulotida o'z hissasini o'stirib boradi;
- soha hisobiga uy xo'jaligida xizmat ko'rsatish vaqti qisqaradi va bu, aholining hayot sifatini oshiradi.

Viloyatda xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirib, hududlarda gaz, suv va elektr energiya taqchilligini pasaytirish uchun yangi texnologiya, yangi uslublardan foydalanish kerak. Joylarda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni kiritish, tadbirkorlik va biznesni rivojlantirib, o'z-o'zini ta'minlashga va ijtimoiy tenglikka erishish kerak.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlariga ta'sir etuvchi barcha omillarni quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

- material texnik omillar: ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish darajasi va sifati, qo'llaniladigan texnologiyalarning darajasi, fanning rivojlanishi va boshqalar;
- tabiiy tarixiy omillar: kimyolash, melioratsiya, irrigatsiya va boshqa vositalar yordamida tuproq-iqlim sharoitlarini yaxshilash, chorvachilik va dehqonchilik sohalarida seleksiya, genetika va boshqa omillar;
- tashkiliy xo'jalik omillari: ishlab chiqarishni tashkil etishning ixtisoslashuvi, konsentratsiyasi, ilg'or tajribaning qo'llanilishi, boshqaruv tizimi va uslublarning xarakteri, darajasi va boshqalar;

2-jadval.

Qashqadaryo viloyatida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi¹.

	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-yil yanvar-sentabr
Qashqadaryo viloyati	12907,4	15967,7	19610,2	43221,2	36694,4
Qarshi sh.	3721,9	4001,4	4793,0	6444,8	6168,9
Shahrisabz sh.	797,8	763,9	954,2	1152,4	1131,2
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	654,8	582,9	706,1	823,3	819,0
Dehqonobod	590,1	524,1	673,0	829,2	697,2
Qamashi	612,1	1130,1	1379,2	1724,2	1260,9

¹ O'zbekistonda savdo (statistik to'plam). -T.: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, 2025 yil

Qarshi	727,6	1138,2	1465,5	1804,5	1360,1
Koson	790,3	878,3	1050,5	1341,0	1430,0
Kitob	795,3	1164,8	1492,8	1838,0	1600,0
Mirishkor	520,7	768,8	946,0	1184,7	990,2
Muborak	544,7	866,8	1053,0	1306,5	1159,9
Nishon	571,7	730,4	944,4	1121,5	949,5
Kasbi	542,7	841,8	1061,8	1295,1	1118,7
Ko'kdala	-	291,3	356,3	421,8	374,8
Chiroqchi	756,1	536,8	668,3	776,6	599,5
Shahrisabz	633,2	937,4	1092,1	1323,4	1101,6
Yakkabog'	648,3	810,7	974,1	1174,8	1131,1

Iqtisodiy omillar: ishlab chiqarishni rejalashtirish va istiqbolni belgilash, iqtisodiy tahlil, hisob va nazorat, mehnatni normallashtirish, ishlarni tariflashtirish va boshqalar; ijtimoiy omillar: inson qobiliyatlarini aniqlanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan omillar – jismoniy, psixologik, intellektual, mehnatga va uning natijalariga ijobiy munosabatlarning rivojlanishi va salbiy omillarning chetlashtirilishi bilan bog'liqligi.

Oxirgi uchta omillar guruhi u yoki bu darajada ishlab chiqarish rivojlanishining mazkur bosqichi uchun xarakterli bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari yig'indisi bilan bog'langan. Shu sababli ular ma'lum bir darajada ijtimoiy xarakterga ega, demak, ularning mazmuni haqida so'z yuritish mumkin, ya'ni uchinchi va to'rtinchi guruh omillarining tashkiliy — xo'jalik va iqtisodiy mohiyati ustunligi hamda haqiqatdan o'zida ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik omillarni mujassamlashtirgan beshinchi guruh omillari ijtimoiy mazmuni ustunligi haqidadir.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini tizimli tahlil qilish orqali integratsion turdagi imitatsion model takomillashtiriladi. Bu esa aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish uchun maqsadli va strategik qaror qabul qilishning metodologiyasi va zamonaviy tizimli izlanishlar tuzilmasida o'ziga xos o'rin egallaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aholiga xizmat ko'rsatish samaradorligining o'sishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha guruhlash mumkin:

ijtimoiy demografik: aholining joylashuvi, jinsi, yoshi, oilaviy axvoli bo'yicha shakllangan tizimni qamrab oladi;

ijtimoiy - kasbiy: ishlab chiqarishni sanoatlashtirish, kadrlarni tayyorlash va kasbga yo'naltirish tizimini, ya'ni ta'lim, mutaxassislik razryad, staj, malakani oshirish bilan bog'liqdir;

ijtimoiy - maishiy: bunda turmush darajasi va uy - joy sharoitlarining yaxshilanishi, madaniy - maishiy xizmat, transport bilan bog'liq muammolarning yechilishi, umumiy ovqatlanish va tibbiy xizmatning tashkil qilinishi, maktabgacha muassasalarning mavjudligi, insonlarning dam olishi va bo'sh vaqtning unumli tashkil qilinishi bilan bog'liq;

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy omillar xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir etadi. Kuchli ta'sir etuvchi omil sifatida aholi bandligi ekanligi aniqlandi. Aholi bandligi bir foizga ortishi aholi turmush darajasini va

aholining umumiy daromadlarini 0,33 % ortishiga olib keladi. YAHM ko'rsatkichi ham aholi turmush darajasining ortishiga va aholining umumiy daromadlari ko'payishiga to'g'ri kuchli ta'sir etib, ushbu ko'rsatkichning bir foizga ortishi aholining umumiy daromadlarini 0,30% ko'payishiga ta'sir etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022-2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. Кремлев Н.Д. Проблемы оценки уровня жизни населения / Н.Д. Кремлев // Вопросы статистики. –2000. –№ 8. –С. 18-23.

3. Социальная статистика. Учебник. /Под ред. проф. И.И.Елисеевой. – М.: "Финансы и статистика" 2002, с.65.

4. Muhammedov Y.Q. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning omillari va ekonometrik modellari.: iqt.fan.dok. ...disc.avtoref.-T.: TDIU. 2006. -38 b.

5. A.R. Raximov. A.B. Annayev. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy tahlili. Marketing jurnali. №3-son mart, 2025-yil 454-459 b.

6. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini oshirishni xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy tahlili. (2025). Journal of Uzbekistan's Development and Research, 218-223. <https://ijournal.uz/index.php/judr/article/view/2070>

7. Rakhimov, A. N., Makhmatkulov, G. K., & Rakhimov, A. M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 21-48.

8. Maxmatkulov, G'. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovasion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 381–386. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a610

9. Maxmatkulov, G. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovasion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). Ekonomika i obrazovaniye, 23(4), 381-386.

20. Raximov, A. (2022). Aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari rivojida ichki va yondosh tarmoqlarning ta'sirini baholash (Qashqadaryo viloyati misolida). Ekonomika i obrazovaniye, 23(4), 397-402.

10. Maxmatkulov G'.X. Savdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati "Biznes-Ekspert", 2021., 5 (161)-son 36-41 b.

11. Rakhimov, A. N., and F. D. Jo'rayev. "A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling." resmilitaris 12.4 (2022): 2164-2174.

12. Doliyev, S. Q. o'g'li, & Jo'rayev, F. D. (2022). Ekonometrik modellashtirish bosqichlarini tahlil qilish. international conferences, 1(1), 10–13. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/223>